



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2026-yil 17-fevral

31-5-0-Q/26

Navoiy viloyati hokimligi

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi “2026-yilda hududlarni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish, barqaror ish o‘rinlarini yaratish hamda kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-49-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida**

Hududlarda barqaror va yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish, loyihaviy yondashuv asosida mahallalar ixtisoslashuvini chuqurlashtirish va hududlarning solishtirma ustunliklarini aniqlagan holda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, rasmiy bandlikni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy qilish, xalqaro tan olingan malaka sertifikatiga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash hamda kambag‘allikni qisqartirish borasidagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida:

### **Q A R O R Q I L A M A N:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi “2026-yilda hududlarni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish, barqaror ish o‘rinlarini yaratish hamda kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-49-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:

Ishsizlik va kambag‘allik darajasini kamaytirish bo‘yicha 2026-yil uchun maqsadli ko‘rsatkichlar;

Aholini doimiy ish o‘rinlariga joylashtirish bo‘yicha 2026-yil uchun maqsadli ko‘rsatkichlar;

Aholini daromadlarni oshirishga qaratilgan xizmatlar bilan qamrab olish bo‘yicha 2026-yil uchun maqsadli ko‘rsatkichlar;

Kambag‘al oilalarni ularning daromadini oshirishga qaratilgan xizmatlar bilan qamrab olish bo‘yicha 2026-yil uchun maqsadli ko‘rsatkichlar;

Asosiy ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha tanlab olingan og'ir toifadagi tumanlar ro'yxati;

Olmazor tumani tajribasi joriy etiladigan tuman va shaharlar ro'yxati;

Norasmiy ish o'rinlari legallashtirish bo'yicha 2026-yil uchun maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (R.Sulaymonov), viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (L.Xayrullayev), tuman (shahar) hokimliklari bir hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorining 1-4-illovalari asosida mahallalar kesimidagi oyma-oy maqsadli ko'rsatkichlarni xalq deputatlari viloyat, tuman va shaharlar Kengashlari muhokamasiga o'rnatilgan tartibda kiritilishini ta'minlasin.

4. Viloyat hokimi o'rinbosarlari (R.Sulaymonov, S.Hikmatov, A.Niyozov, J.Xodjayev), viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (L.Xayrullayev), viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Sh.Jumayev) tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda quyidagilarni ta'minlasin:

a) ikki kun muddatda "og'ir" mahallalarning manzilli ro'yxati tasdiqlanishini;

b) o'n besh kunlik muddatda "og'ir" mahallalar ixtisoslashuvini chuqurlashtirishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi dasturlarni (keyingi o'rinlarda - "islohot dasturi" ishlab chiqilishini va tasdiqlash uchun o'rnatilgan tartibda xalq deputatlari viloyat Kengashiga kiritilishini:

aholi tomorqalari va ijaraga berilgan yer maydonlaridan samarali foydalanish, shu jumladan, sug'orish tizimlarini yaxshilash;

tadbirkorlik uchun qulay infratuzilmani yaratish, jumladan, elektr va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash;

mahallalarni tuman markaziga hamda boshqa tutash tuman (shahar)larga bog'lovchi yo'llarni yaxshilash bilan bog'liq loyihalar.

5. Viloyat hokimi o'rinbosarlari (R.Sulaymonov, S.Hikmatov, A.Niyozov, J.Xodjayev), viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (L.Xayrullayev), viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Sh.Jumayev) tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda ikki hafta muddatda "og'ir" tumanlarning ixtisoslashuvi, geografik joylashuvi va boshqa infratuzilmaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib solishtirma ustunlik yo'nalishlarini ishga solishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun o'rnatilgan tartibda xalq deputatlari viloyat Kengashiga kiritsin:

sanoat zonalarini faoliyatini kengaytirish, mahallalar ixtisoslashuvini chuqurlashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, qulay infratuzilma sharoitlarini yaratish;

irrigatsiya tarmoqlarini, shu jumladan, aholi tomorqasi va ijaraga berilgan yer maydonlarida sug'orish tizimini yaxshilash;

tuman markazini yirik avtomobil yo'llariga va aholi ko'p yashaydigan mavzelnarni tuman markazita hamda boshqa tutash tuman (shahar)larga bog'lovchi yo'llarni yaxshilash;

mahallalar ixtisoslashuvini chuqurlashtirish bilan bog'liq boshqa loyihalar.

6. Tuman (shahar) hokimliklari 2026-yil 1-martdan boshlab xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi tuman va shahar hokimlari tomonidan lavozimga tayinlanishi va lavozimidan ozod etilishi tartibi o'rnatilganligi inobatga olinsin.

7. Viloyatda 2026-yilda yangicha yondashuvlar asosida aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (R.Sulaymonov), Axborot-tahlil guruhi (J.Bobomurodov) "Islohotlar shtabi" bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida belgilangan vazifalar ijrosini tegishli mas'ullar ishtirokida tanqidiy muhokama qilib, har chorak yakuni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borsin.

9. Mazkur qarorning samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig'i L. Xayrullayev, Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi boshlig'i Sh. Sharopov hamda viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining birinchi o'rinbosari Sh. Jumayev belgilansin.

10. Ushbu qaror ijrosini muhokama qilib borish, mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari R. Sulaymonov zimmasiga yuklansin.

**Viloyat hokimi**



**N.Tursunov**

Navoiy viloyati hokimining  
2026-yil 17-fevraldagi  
31-5-0-Q/26-son qaroriga  
1-ilova

**Viloyatda 2026-yilda yangicha yondashuvlar asosida aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha  
"YO'L XARITASI"**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
<b>I. Mahallalarda loyihaviy yondashuv asosida ularning geografik joylashuvi hamda ixtisoslashuvidan kelib chiqib aholi daromadlarini oshirishni tashkillashtirish.</b>					
1.	<p>2026-yil uchun belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun tizimli ishlarni tashkil qilish.</p> <p>Jumladan, 28,5 ming nafar aholini doimiy ishga joylashtirish, 145,4 ming nafar aholi daromadini oshirish, 35,1 mingta norasmiy ish o'rinlarini soyadan chiqarish.</p>	<p>1. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shaharlar kengashlarida mahallalar kesimida oyma-oy maqsadli ko'rsatkichlarni tasdiqlash.</p> <p>Bunda maqsadli ko'rsatkichlar mahallalarning ixtisoslashuvi, geografik joylashuvi hamda tarixan shakllangan ko'nikmasidan kelib chiqqan holda taqsimlanishi inobatga olinsin.</p> <p>2. Kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan va infratuzilmasi past darajadagi 12 ta mahallaning har biriga viloyat boshqarma, tashkilotlarning rahbarlarini biriktirish.</p>	<p>2026-yil fevral</p> <p>2026-yil fevral</p>	-	<p>Viloyat hokimining o'rinbosarlari (<i>R.Sulaymonov, A.Niyozov, J.Xodjayev, E.G'affarov, S.Hikmatov, S.Mirzayev, M.Mamadiyorova</i>), viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (<i>L.Xayrullayev</i>), Tuman (shahar) hokimliklari</p>

2.	<p>Chegara va anklav hududlarda, turistik salohiyati yuqori bo'lgan, bir nechta mahallani qamrab oluvchi gavjum ko'chalarda, shuningdek, sohil va yo'l bo'yi hududlarida, "Yangi O'zbekiston" maqomi berilgan tumanlardagi mahallalar va mikro sanoat markazlari tashkil etiladigan hududlarda infratuzilmani rivojlantirish.</p>	<p>1. Chegara va anklav hududlarda, turistik salohiyati yuqori bo'lgan, bir nechta mahallani qamrab oluvchi gavjum ko'chalarda, shuningdek, sohil va yo'l bo'yi hududlarida, "Yangi O'zbekiston" maqomi berilgan tumanlardagi mahallalar va mikro sanoat markazlari tashkil etiladigan mahallalarning infratuzilma bilan bog'liq muammolarni aniqlash.</p> <p>2. Infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun bosh (master) rejalar va ular asosida loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash.</p> <p>3. Infratuzilma uchun O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratilgan mablag'larni taqsimlash.</p> <p>4. Ushbu mahallalarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun zarur yer maydonlarini tanlash, auksion savdolariga chiqarish hamda tasdiqlangan bosh (master) rejaga muvofiq auksion savdolari g'oliblari bilan ishlarni tashkil etish.</p> <p>5. Mazkur loyihalarni amalga oshirish uchun yetishmayotgan mablag'larni mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratish imkoniyatini ko'rib chiqish.</p>	<p>2026-yil fevral</p> <p>2026-yil aprel</p> <p>2026-yil aprel</p> <p>2026-yil may</p> <p>2026-yil avgust</p>	<p>Respublika va mahalliy budjet, tijorat banklari kreditlari va tashabbuskorlar mablag'lari</p>	<p>Viloyat hokimining o'rinbosarlari (R.Sulaymonov, J.Xodjayev, A.Niyozov, S.Mirzayev), viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Sh.Jumayev), Tuman (shahar) hokimliklari</p>
3.	<p>8 ta chegara va anklav hududlardagi mahallalarda dam olish maskanlari va savdo-servis obyektlarini tashkil qilish orqali kambag'allikni qisqartirish.</p>	<p>1. Mahallalarda tashkil etiladigan mehmon uylari, dam olish maskanlari va savdo-servis loyihalarining ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun mablag'larni ajratish hamda oilalarning daromadini oshirish.</p>	<p>2026-yil 1-mart</p> <p>2026-yil davomida</p>	<p>Tijorat banklari kreditlari, tashabbuskorlar mablag'lari</p>	<p>Viloyat hokimining o'rinbosarlari (R.Sulaymonov, S.Mirzayev), tijorat banklari, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Sh.Jumayev), viloyat Turizm boshqarmasi (K.Normamatov), Markaziy bankning viloyat</p>

					bosh boshqarmasi ( <i>Sh.Sharopov</i> ) Tijorat banklari, Tuman (shahar) hokimliklari
4.	Sanoatga ixtisoslashgan (mebelchilik, hunarmandchilik, tikuvchilik va boshqa yoʻnalishlarda) mahallarda 3 ta mikrosanoat markazlarini ishga tushirish orqali aholining doimiy bandligini taʼminlash.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sanoatga ixtisoslashgan 9 ta mahallada qamrab oluvchi 3 ta mikrosanoat markazi roʻyxatini shakllantirish.</li> <li>2. Mikrosanoat markazlarini tashkil etish uchun zarur yer maydonlarini ajratish va bosh (master) rejalarni ishlab chiqish.</li> <li>3. Mikrosanoat markazlari uchun zarur infratuzilmani yaratish.</li> <li>4. Mikrosanoat markazlarini tashkil etish uchun tegishli yer maydonlarini auksionga chiqarish, tadbirkorlarni jalb etish, biznes inkubatorlar xizmatidan keng foydalanish va zarur kredit mablagʻlarini ajratish.</li> </ol>	<p>2026-yil fevral</p> <p>2026-yil aprel</p> <p>2026-yil davomida</p>	Respublika budjeti, tijorat banklari kreditlari va tashabbuskorlar mablagʻlari	<p>Viloyat hokimining oʻrinbosarlari (<i>R.Sulaymonov, E.Gʻaffarov</i>), viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (<i>Sh.Jumayev</i>), Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (<i>R.Azimov</i>), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi (<i>Sh.Sharopov</i>) Tijorat banklari, Tuman (shahar) hokimliklari</p>
5.	Barqaror elektr taʼminotini yaxshilash va bu orqali kambagʻal oilalarning elektr energiyasi xarajatlarini kamaytirish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. "Ogʻir" mahallalar hududida 300-500 kVt soat quvvatga ega boʻlgan kichik quyosh elektr stansiyalarini qurish boʻyicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish.</li> <li>2. Qurilgan kichik quyosh elektr stansiyalarini "ogʻir" mahallalarga daromad keltiradigan aktiv sifatida begʻaraz berish.</li> <li>3. Quyosh elektr stansiyalarida yaratiladigan elektr energiyasini sotishdan tushadigan mablagʻlarni mahalla budjetiga yoʻnaltirish.</li> <li>4. Quyosh elektr stansiyalarini boshqarish va ularga xizmat koʻrsatish uchun ushbu mahallalarda yashovchi Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oila aʼzolarini oʻqitish va ishga olish.</li> </ol>	<p>2026-yil fevral</p> <p>2026-yil aprel</p> <p>2026-yil davomida</p>	Tiklanish va taraqqiyot jangʻarmasi	<p>Viloyat hokimi oʻrinbosari (<i>A.Niyozov</i>), "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Navoiy viloyat filiali (<i>M.Zaripov</i>) viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (<i>Sh.Jumayev</i>), Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi (<i>Q.Rajabov</i>), Tuman (shahar) hokimliklari</p>

6.	Og'ir toifadagi mahallalardagi aholi tomorqasi va ijara yer maydonlaridan samarali foydalanish orqali aholi daromadini oshirish.	Tanlab olingan 12 ta og'ir toifadagi mahallalar bo'yicha davlat va mahalla o'rtasida ijtimoiy shartnomalar tuzish. Bunda "mahalla yettiligi" tomonidan: (a)aholi tomorqasi va ijara yer maydonlaridan samarali foydalanish (ekin ekish) hamda oilaning daromadini oshirish; (b) oilaga tegishli uy-joyning sanitariya holatini yaxshi saqlash va boshqa majburiyatlar.	2026-yil mart	-	Viloyat hokimining o'rinbosarlari ( <i>R.Sulaymonov, S.Hikmatov</i> ), viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi ( <i>L.Xayrullayev</i> ), O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi ( <i>L.Oblaqulov</i> ) Tuman (shahar) hokimliklari
<b>II. Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish</b>					
7.	Har bir mahallada kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida o'rtacha 40 tadan jami 12 400 ta mikroloyihalarni amalga oshirish natijasida 24 800 nafar aholining daromadini oshirish.	1. 2026 yilda mahallalarda amalga oshiriladigan mikroloyihalarning oyma-oy reja ko'rsatkichlarini tasdiqlash. 2. Biznes qilish tashabbusini bildirgan fuqarolar bilan manzilli ishlash orqali mikroloyihalar uchun kreditlar portfelini shakllantirish. 3. Mikroloyihalarni amalga oshirish uchun zarur kredit mablag'ini moliyalashtirish.	2026-yil fevral  2026-yil mart  2026-yil davomida	Tijorat banklari kreditlari va loyiha tashabbuskorlari mablag'lari	Viloyat hokimining o'rinbosarlari ( <i>R.Sulaymonov, S.Hikmatov</i> ) viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi ( <i>L.Xayrullayev</i> ), viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi ( <i>S.Hamrayev</i> ), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi ( <i>Sh.Sharopov</i> ), tijorat banklari, Tuman (shahar) hokimliklari
8.	Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish doirasida o'zini o'zi band qilgan shaxslarni qo'llab- quvvatlash orqali tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish.	1. Har bir mahalladan tadbirkorlik qilish istagi bo'lgan 3 nafardan o'zini o'zi band qilgan shaxslar ro'yxatini shakllantirish. 2. Istiqbolli loyihalarni saralash, o'zini o'zi band qilgan shaxslarga tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish uchun kredit mablag'larini ajratish.	2026-yil davomida	Tijorat banklari kreditlari va tashabbuskorlar mablag'lari	Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari ( <i>R.Sulaymonov</i> ) O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi ( <i>L.Oblaqulov</i> ), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi ( <i>Sh.Sharopov</i> ), tijorat banklari, viloyat Soliq boshqarmasi ( <i>S.Nazarov</i> ),

					Tuman (shahar) hokimliklari	
9.	"Milliy brend"lar tarmog'ini hududlarda kengaytirish doirasida aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash.	<p>1. "Milliy brend"lar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Hududlarda milliy brendlarning filiallarini tashkil etish maqsadida binoshootlar sotib olish, qurish, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va jihozlash uchun kredit ajratish.</p> <p>3. Mazkur kreditlar doirasida "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ tomonidan "Kredit foiz xarajatlarini kompensatsiya qilish jamg'armasi" hisobidan kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kreditlarning miqdoridan qat'iy nazar uning 5 mlrd so'm ekvivalentigacha bo'lgan qismiga tadbirkorning hudud toifasi va barqarorlik reytingidan qati nazar kredit foiz xarajatlarining bir qismini quyidagi tartibda kompensatsiya qilish:</p> <p>(a) milliy valyutada - Markaziy bank asosiy stavkasining 2 baravaridan yuqori bo'lmagan stavkada ajratiladigan kreditlarning asosiy stavkadan 4 foizlik punktdan yuqori qismi, biroq 10 foizlik punktdan ko'p bo'lmagan miqdorda;</p> <p>(b) xorijiy valyutada-ajratiladigan kreditlarning 8 foizdan yuqori qismi, biroq, 4 foizlik punktdan ko'p bo'lmagan miqdorda.</p> <p>4. Yangi tashkil etilgan milliy brend korxonalari buyurtmasiga asosan o'qitish xarajatlarini vaucher qiymatidan oshmagan miqdorda qoplab berish.</p>	2026-yil fevral	2026-yil davomida	<p>Tijorat banklari kreditlari va tashabbuskorlar mablag'lari, Kredit foiz xarajatlarini kompensatsiya qilish jamg'armasi,</p> <p>Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi</p>	<p>Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (<i>R.Sulaymonov</i>)</p> <p>Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi (<i>Sh.Sharopov</i>), tijorat banklari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (<i>L.Xayrullayev</i>), O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (<i>L.Oblaqulov</i>), Tuman (shahar) hokimliklari</p>

### III. Maqsadli ijtimoiy bandlik dasturlari

10.	"Mehnatsevar ayol" dasturi doirasida 2 650 nafar xotin-qizlar bandligini ta'minlash.	1. Xotin-qizlar bandligini ta'minlash bo'yicha "Mehnatsevar ayol" dasturini hududlar kesimida ishlab chiqish. Vaucher tizimi asosida o'qish istagini bildirgan xotin-qizlarning o'qish xarajatlarini moliyalashtirish.	2026-yil fevral  2026-yil davomida	Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi	Viloyat hokimi o'rinbosari-Oila va xotin-qizlar boshqarmasi ( <i>M.Mamadiyorova</i> ) viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi ( <i>L.Xayrullayev</i> ), Tuman (shahar) hokimliklari
11.	Ijtimoiy reyestrda 1 guruh nogironligi bo'lib, mehnatga layoqatli a'zosi bo'lmagan oilalarning xonadonini energiya tejamkor qilib ta'mirlash.	1. Viloyatda yashovchi Ijtimoiy reyestrda 1 guruh nogironligi bo'lib, mehnatga layoqatli a'zosi bo'lmagan oilalarni (keyingi o'rinlarda — ehtiyojmand oila) aniqlash va ularning xonadonini energiya tejamkor qilib ta'mirlash ishlarini amalga oshirish.	2026-yil mart	"Saxovat va ko'mak", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" jamg'armalari	Viloyat hokimi o'rinbosari ( <i>A.Niyozov</i> ), "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Navoiy viloyat filiali ( <i>M.Zaripov</i> ) Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi ( <i>Q.Rajabov</i> ), Tuman (shahar) hokimliklari
12.	Turizm xizmatlarini rivojlantirish orqali Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalarning daromadini oshirish va bandligini ta'minlash.	2. Turizm salohiyati yuqori bo'lgan 2 ta mahallalarda turizm xizmatlarini rivojlantirish, shu jumladan, 1 ta mahallaga "turizm mahallasi" ("turizm qishlog'i") maqomini berish.	2026-yil davomida	Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, tashabbuskorlar mablag'lari, tijorat banklari kreditlari	Viloyat hokimi o'rinbosari ( <i>S.Mirzayev</i> ) viloyat Turizm boshqarmasi ( <i>K.Normamatov</i> ), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi ( <i>Sh.Sharopov</i> ), tijorat banklari, Tuman (shahar) hokimliklari

### IV. Dehqon xo'jaligi, tomorqa va kooperatsiya asosida daromad

13.	"Bir kontur-bir mahsulot" tamoyili asosida mahsulot yetishtirishni 5,9 ming gektarga yetkazish.	1. Ekin maydonlari ro'yxatini shakllantirib, ushbu maydonlarga talab etiladigan urug' va ko'chatlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash. 2. Ehtiyojdan kelib chiqib, moliyaviy ko'maklarni taqdim etgan holda ekin ekilishini ta'minlash. 3. Yetishtirilgan mahsulotlarni sotishda agregatorlar hamda yetakchi tadbirkorlar	2026-yil fevral  2026-yil aprel	Tijorat banklari kreditlari  tashabbuskorlar mablag'lari	Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari ( <i>R.Sulaymonov</i> ), viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi ( <i>L.Xayrullayev</i> ), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi ( <i>Sh.Sharov</i> ), tijorat banklari,
-----	---	--	---------------------------------------	--	--

		<p>tomonidan ko'mak ko'rsatish amaliyotini yo'lga qo'yish.</p> <p>4.Tijorat banklari tomonidan o'zlariga biriktirilgan har bir hududda 140 gektar yer maydonida yuqori daromadli eksportbop mahsulot yetishtirilishini ta'minlash.</p>	2026-yil davomida		Tuman (shahar) hokimliklari
14.	<p>Mahallalarda loyihaviy yondashuv asosida 41 ta mahallada "Bir mahalla - bir mahsulot" tamoyiliga muvofiq yuqori daromadli mahsulot yetishtirish.</p>	<p>Loyihaviy yondashuv asosida "Bir mahalla - bir mahsulot" tamoyiliga muvofiq yuqori daromadli mahsulot yetishtiruvchi mahallalar sonini 41 taga yetkazish. Bunda:</p> <p>(a). 10 ta mahallada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda aholi ko'nikmalarini oshirish uchun usta dehqonlarni yollash;</p> <p>(b). 8 ta mahallaning ixtisoslashuvi asosida namunali tomorqalar tashkil etish va ushbu mahallalardagi aholi xonadonida amalga oshirilgan eng namunali va innovatsion loyihalar uchun grant ajratish;</p> <p>(g) 3 ta mahallada Ijtimoiy reyestrda kiritilgan 21 ta oilalarga tok so'risini o'rnatish choralari ko'rish.</p>	2026-yil noyabr	<p>Tijorat banklari kreditlari, Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, tashabbuskorlar mablag'lari</p>	<p>Viloyat hokimining o'rinbosarlari (R.Sulaymonov, S.Hikmatov, J.Xodjayev), viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (L.Xayrullayev), viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (S.Hamrayev), O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (L.Oblaqulov), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi (Sh.Sharopov), tijorat banklari, Tuman (shahar) hokimliklari</p>
15.	<p>Tijorat banklari biriktirilgan hududlarda amalga oshirilgan namunali loyihalar negizida 77 ta mahsulotni qayta ishlash, qadoqlash va saqlash loyihalarini tashkil qilish.</p>	<p>1. Namunaviy loyihalar negizida tashkil etiladigan mahsulotlarni qayta ishlash, qadoqlash va saqlash loyihalari ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Loyihalarni amalga oshirish yuzasidan tarmoq jadvalarini tasdiqlash.</p> <p>3. Loyihalarni amalga oshirish uchun tashabbuskorlarga ko'maklashish va kredit mablag'larini ajratish.</p>	<p>2026-yil fevral</p> <p>2026-yil mart</p> <p>2026-yil davomida</p>	<p>Tijorat banklari kreditlari, tashabbuskorlar mablag'lari</p>	<p>Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (R.Sulaymonov), viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (L.Xayrullayev), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi (Sh.Sharopov), tijorat banklari, Tuman (shahar) hokimliklari</p>
16.	<p>Zamonaviy texnologiyalar asosida Qiziltepa tumanida innovatsion asalarichilik</p>	<p>Zamonaviy texnologiyalar asosida Qiziltepa tumanida innovatsion asalarichilik kooperativlarini tashkil etish.</p>	2026-2027 yillarda	<p>Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer</p>	<p>Viloyat hokimining o'rinbosarlari (R.Sulaymonov, S.Hikmatov),</p>

	kooperativlarini tashkil etish.			egalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi, bank kreditlari va tashabbuskorlar mablag'lari,	viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi ( <i>L.Xayrullayev</i> ), viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi ( <i>O'.Qobilov</i> ), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi ( <i>Sh.Sharopov</i> ), tijorat banklari, Tuman (shahar) hokimliklari
17	Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar sotilishini rag'batlantirish.	1. Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish uchun dehqon bozorlari va super marketlarda maxsus va savdo nuqtalari ro'yxatini shakllantirish. 2. Shakllantirilgan ro'yxatga kiritilgan maxsus va savdo nuqtalarida savdo qilish uchun zarur sharoitlar yaratish. 3. Tashkil etilgan maxsus va savdo nuqtalarini, birinchi navbatda, Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalar a'zolariga berish.	2026-yil aprel	Mahalliy budjet mablag'lari	Viloyat hokimi o'rinbosari ( <i>J.Xodjayev</i> ), Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi ( <i>Q.Rajabov</i> ) viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi ( <i>Sh.Jumayev</i> ), Tuman (shahar) hokimliklari
18.	Aholining tomorqalaridan yuqori daromad olish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida hududlarda Termiz tumani misolida 1 ta tumanda "Tomorqa maktabi"ni tashkil qilish.	1. Viloyatda "Tomorqa maktabi"ni tashkil etish istagi bo'lgan loyiha tashabbuskorlarini aniqlash. 2. Hokimliklar zaxira yerlaridan "Tomorqa maktabi"ni tashkil etish uchun yer maydoni ajratish. 3. "Agrostarlar" tomonidan maktab tinglovchilariga tomorqasida daromadli ekin ekishi uchun urug' va ko'chatlar yetkazib berish hamda yetishtirilgan mahsulotni sotib olishni yo'lga qo'yish.	2026-yil mart 2026-yil may 2026-yil davomida	Tashabbuskorlar mablag'lari, tijorat banklari kreditlari	Viloyat hokimining o'rinbosarlari ( <i>R.Sulaymonov, S.Hikmatov, J.Xodjayev</i> ), viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi ( <i>L.Xayrullayev</i> ), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi ( <i>Sh.Sharopov</i> ), tijorat banklari, Tuman (shahar) hokimliklari
<b>V. Ish beruvchilar bilan ishlashni takomillashtirish</b>					
19.	"Bandlik organlari - ish beruvchi hamkori" dasturini takomillashtirish hamda ish	1. Bandlik organlari tomonidan korxonalarda mavjud bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar va ish	2026-yil davomida	Bandlikka ko'maklashish davlat	Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari ( <i>R.Sulaymonov</i> ),

	beruvchilar va ish izlovchilar o'rtasida hamkorlikni o'rnatish hisobiga 4 425 nafar aholini doimiy ish o'rinlariga joylashtirish.	qidiruvchilarning rezyumelari "osonish.uz" elektron platformasiga joylashtirilishiga ko'maklashish. 2. Ish beruvchilarga sun'iy intellekt yordamida nomzodlarni aniqlash va tavsiya etish mexanizmini joriy etish.		javg'armasi	viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi ( <i>L.Xayrullayev</i> ), Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi ( <i>Q.Rajabov</i> ), O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi ( <i>L.Oblaqulov</i> ), Tuman (shahar) hokimliklari
--	---	---	--	-------------	---

**VI. Institutsional islohotlar va loyiha boshqaruvi.**

20.	Norasmiy ish o'rinlarini rasmiy sektorga o'tkazish ishlarini takomillashtirish.	1. Norasmiy ish o'rinlarini rasmiy sektorga o'tkazish bo'yicha tegishli dasturlarni tasdiqlash. Bunda, ko'rsatkichlardan kelib chiqib oyma-oy reja ko'rsatkichlari hamda amalga oshiriladigan nazorat va profilaktik tadbirlari nazarda tutiladi. 2. Tasdiqlangan dastur asosida Hududlarda aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ishlarni tashkil etish. 3. O'tkaziladigan tekshiruvlarning shaffofligini oshirish uchun Davlat mehnat inspektorlarini bodi-kameralar bilan ta'minlash choralarini ko'rish;	2026-yil davomida	Bandlikka ko'maklashish davlat javg'armasi	Viloyat hokimining o'rinbosarlari ( <i>R.Sulaymonov, J.Xodjayev, S.Hikmatov, A.Niyozov, S.Mirzayev</i> ), viloyat Soliq boshqarmasi ( <i>S.Nazarov</i> ), Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi ( <i>Q.Rajabov</i> ), viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi ( <i>L.Xayrullayev</i> ), viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi ( <i>S.Hamrayev</i> ), viloyat Transport boshqarmasi ( <i>B.Raximov</i> ) viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi ( <i>O.Shodiyev</i> ), viloyat Turizm boshqarmasi ( <i>K.Normamatov</i> )
-----	---	---	-------------------	--	--